

## **KUVUSHSHOXLILAR OILASI**

*Tashpulatova Dilfuza Xidayevna*  
*Maxmudova Nodira Abduvoxit qizi*  
*O'zbekiston davlat tabiat muzeyi*  
**E-mail:** [tabiatmuzeyi1876@umail.uz](mailto:tabiatmuzeyi1876@umail.uz)

*Annotatsiya.* Quyidagi maqolada kuvushshoxlilar oilasi kiruvchi yovvoyi turlari, hamda ularning tarqalish areali haqida ma'lumotlar keng yoritilgan. Shu bilan birga, kuvushshoxlilar oilasiga mansub mamlakat Qizil Kitobiga kiritilgan turlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Yana ushbu maqola orqali O'zbekiston davlat tabiat muzeyida mavjud kuvushshoxli hayvon tulumlari haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so'zlar:* kuvushshoxlilar, juft tuyoqlilar, Cavicornia, tulum, muzey fondi, kiyiklar, Qizil Kitob.

Kuvushshoxlilar (Cavicornia) oilasiga mansub vakillarda shoxlar suyak asosga joylashgan g'ovak g'ilof shaklida. Ular epidermisning malpigiyy qismidan hosil bo'lib, almashinmaydi. Faqat Amerika burma shox kiyigida (Antilocapra) shoxlar xachchasimon bo'lib, po'sti har yil almashinib turadi. Shoxlar faqat erkaklarida bo'ladi. Yuqorigi jag'larida qoziq tishlar yo'q. Yovvoyi turlari Avstraliya va Janubiy Amerikadan boshqa barcha mamlakatlarda bor. Ko'p turlari xonakilashtirilib, ulardan uy hayvonlari kelib chiqqan.

Quyida asosiy yovvoyi turlari bilan qisqacha tanishamiz.

Jirafalar oilasi (*Giraffidae*). Bu oila vakillari faqat Afrikada yashaydi. Bo'yni uzun, oldingi oyoqlari orqa oyoqlaridan ancha uzun bo'lishi bilan xarakterlanadi. Boshida teri bilan qoplangan ikkita kichik suyak shoxchasi bor.

Kiyiklar ayniqsa Afrikada ko'p. Keng tarqalgan turlaridan biri bu jayronlar (*Gazella subgutturosa*) Sharqiy Kavkaz orti, O'rta Osiyo, Qozog'istonning cho'l va dashtlarida sayg'oq (*Saiga tatarica*) Kavkaz va Karpat tog'-o'rmonlarida, [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

ilmoqsimon qayrilgan shoxli oqquyruq kiyik (*Rupicapra rupicapra*) yashaydi. Kiyik (*Cervus*) - kuvushshoxlilar oilasiga mansub juft tuyoqli sutemizuvchi yhayvon. Yer yuzida kiyiklarning 13 turi uchraydi.

Ov obyekti hisoblanadi. “Boburnoma” da ham keltirilgan bo‘lib, Farg‘ona, Qobul va Hidistonda uchraydigan kiyiklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Qoraquyruq, jayron – ohular (g‘izollar) urug‘ining bir turi. Juft tuyoqlilar turkumining kuvushshoxlilar oilasiga kiradi. Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarida tarqalgan. Qoraquyruq Qizilqum, Qorqum kabi keng sahro va chalasahrolarda yashaydi.

Qaddi-qomati kelishgan hayvon bo‘lib, gavdasining uzunligi 115 sm, bo‘yi 70 sm va og‘irligi 30 kg cha bo‘ladi. Dumi boshqa ohularnikiga nisbatan uzun va uchi qora, shuning uchun unga qoraquyruq deb nom berilgan.

Kavkaz, O‘rta Osiyo, Janubiy Sibir tog‘larida echki va qo‘ylarning bir necha turi tarqalgan. Echkilardan Kavkaz turi (*Capra caucasica*, *S. cylindricornis*), Sibir kozerogi (*S. sibirica*) mavjud. Echkilar baland tog‘ hayvonlari bo‘lib, qoyatoshli landshaftda yashaydi. 20—30 boshdan iborat pada bo‘lib o‘tlab yuradi. Ular uchun keng yaylovlar bo‘lishi shart emas.

Yovvoyi qo‘ylardan Janubiy Kavkaz ortida tarqalgan muflon (*Ovis ophion*) ni misol keltirsa bo‘ladi. Qrimda muflonning *O. musimon* turi iqlimlashtirilgan. O‘rta Osiyo tog‘larida juda katta qo‘y — arxar (*O. ammon*) yashaydi.

Qo‘ylar ham baland tog‘ hayvonlari bo‘lishiga qaramay, qoyalardan uzoqroqda, plato va tog‘ etaklarida yashashi bilan echkilardan farq qiladi. Ular ochiq yaylovlarda yurib, ko‘pincha katta (yuz va undan ham ko‘p bosh) pada bo‘lib o‘tlaydi. Ayniqsa, qishda podadagi hayvonlar soni ko‘p bo‘ladi. Arxar (arkar galcha, muflon; *Ovis vignei*) - yovvoyi qo‘y, juft tuyoqlilar (*Artiodactyla*) turkumidan kuvushshoxlilar (*Bovidae*) oilasiga mansub sutemizuvchi hayvon turi, Osiyo va Janubiy Yevropaning tog‘li hududlarida uchraydi.

Arxarning Buxoro qo‘yi va Ustyurt qo‘yi kichik turlari O‘zbekiston Qizil Kitobi hamda Tabiat va tabiiy resurslarni muxofaza qilish Xalqaro Ittifoqining Qizil ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Qizil Kitobiga mamlakat

hududida uchraydigan kuvushshoxlilarning bir qancha turlari ham kiritilgan:

1. **Xongul** – yo‘q bo‘lib ketayotgan, lokal tarqalgan kenja tur. Qayir to‘qayzorlari, ba‘zan ularga yondosh qumli cho‘llarda yashaydi. Tog‘ daryolari vodiysidan tog‘ etaklariga chiqishi kuzatilgan.

Surxondaryoda 100dan ortiq, Amudaryoning o‘rta oqimida 120-150 ta, Qoraqalpog‘istonda 800 ta, Zarafshon daryosi vodiysida 100-150 taga yaqini saqlanib qolgan.

Podalari 3-20 ta va undan ham ko‘proq bo‘ladi. Yozda tunlari, qishda kunduzi ham faol. Sentyabr-oktyabrda juftlashib, may-iyun oylarida 1 ba‘zan 2 ta bolalaydi. Bolalari bir yilcha onasidan ajramaydi. 2-3 yoshida jinsiy voyaga yetadi.



Xongul daraxt, buta va o‘tsimon o‘simliklar bilan oziqlanadi. Zarafshon Milliy tabiat bog‘i va Quyi Amudaryo biosfera rezervati volyerlarida ko‘paytiriladi.

2. **Morxo‘r** – butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalgan kenja tur. Tog‘larning toshqoyali va siyrak archazorli yonbag‘irlarida yashaydi. Yozda baland tog‘ o‘tloqlarigacha ko‘tariladi.

Poda bo‘lib yashaydi va mavsumiy ko‘chadi. 1950-1970-yillarda keskin kamayib ketgan. Hozirda taxminan 400-450 tasi mavjud. Juftlashish davri noyabr-dekabrda. Aprel-may oylarida 1-2 ta bolalaydi. Bolalari 1 yilgacha onasidan ajramaydi. 2-4 yoshida jinsiy voyaga yetadi.

Asosan o‘tsimon o‘simliklar bilan oziqlanadi. Dunyoning hayvonot bog‘lari va parvarishxonalarida ko‘paytiriladi.



3. **Ustyurt qo'yi, Arqal** – butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalgan kenja tur. Poda bo'lib yashaydi va mavsumiy ko'chadi. Juftlashish davri oktyabr-dekabrda. Mart-Aprel oylarida 1-2 ta bolalaydi. Bolalari bir yilgacha onasidan ajramaydi va 3-4 yoshida jinsiy voyaga yetadi.



Hayot davomiyligi 12 yil. Asosan o'tsimon o'simliklar bilan oziqlanadi. Dunyoning hayvonot bog'lari va parvarishxonalarida ko'paytiriladi.

4. **Buxoro qo'yi** – butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan, lokal tarqalgan kenja tur. Tog' dashtlari va siyrak archazorli qismlarida yashaydi. Poda bo'lib yashaydi. Turkmaniston va Tojikiston hududlariga mavsumiy ko'chadi. Juftlashish davri noyabr-dekabrda. Aprel-may oylarida 1-2 ta bolalaydi. Bolalari bir yilgacha onasidan ajramaydi. 2-4 yoshida jinsiy voyaga yetadi. Asosan o'tsimon o'simliklar



bilan oziqlanadi. Termiz va Toshkent hayvonot bog'larida, shuningdek, Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigida volyerlarda ko'paytirilmoqda.



5. **Tyan-shan tog' qo'yi** – o'ta kamyob, kam o'rganilgan kenja tur. Qish paytida tog'ning ancha past, qori kam tekis qiyaliklarini o'ziga makon qiladi.

Yoz mavsumida urg'ochisi va yosh bolalari ko'pincha baland va tik qoyalarda, shuningdek, tog' kamarlarining yuqori qismida hayot kechiradi. Erkaklari esa nishab qoyalarda oziqlanadi.

Ertalabki va oqshomgi paytlarda ancha faol hayot kechiradi. Qishda esa qoyalarning kun tushadigan ochiq joylarida o'tlaydi.



Bahor va yozda boshqoli dukakli o'simliklar bilan oziqlansa, qishda ularning

o'rnini butalarning novdalari va mevalari egallaydi. Bitta ba'zan ikkitadan qo'zilaydi. Hayvonot bog'larida muvaffaqiyatli ko'paytirilmoqda.

6. **Qizilqum arxari** – zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan kenja tur. Tog'larning o'rta va yuqori qismlarida yashaydi. Yil fasllari, kunning vaqti, ob-havo va ozuqa sharoitiga, antropogen ta'sir darajasiga ko'ra tog' yon bag'irlarining turli balandliklarida notekis uchraydi.

Qishda tog' etaklari va vodiylarga tushadi. Poda bo'lib yashaydi, mavsumiy ko'chadi. Juftlashish davri oktyabr-noyabr oylarida. Aprel- may oylarida 1 ba'zan 2 ta bolalaydi. Bolalari bir yilgacha onasidan ajramaydi. 2-4 yoshida jinsiy voyaga yetadi.

Asosan o'tsimon o'simliklar bilan oziqlanadi. Ovlash ta'qiqlangan. Mavjud yashash joylari muhofazasini tashkil qilish va parvarishxonalarda ko'paytirish lozim.



7. **Sayg'oq (oq quyruq)** – butunlay yo'qolib ketish arafasida turgan juda noyob tur. Ustyurt yassi tekisligi, Sharqiy va Janubiy Orolbo'yi, Orol dengizining qurib qolgan hududlarida yashaydi.

Asosiy yashash joylari: Cho'llar va yarim cho'llar. Sayg'oqlar poda bo'lib yashaydi va mavsumiy ko'chib yuradi.

Aprel oyi oxirida va may oyi boshida 1-2 tadan bolalaydi. Urg'ochisi 1-1,5 yilda, erkagi 2-2,5 yilda jinsiy voyaga yetadi. O't o'simliklar va yarim butalar bilan oziqlanadi. Ovlash ta'qiqlangan. Ayni paytda "Saygachiy" majmua buyurtma [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

qo'riqxonasi hududida muhofaza ostiga olingan.



8. **Jayron** – zaif, qisqarib borayotgan, mozaik tarqalgan kenja tur. Tekis yoki past baland cho'llar, yarim cho'llar va qir adirlar, cho'llashgan tog' oldi hududlari. Shag'alli va sertuproq yerlarni afzal ko'radi.

Qishda o'nqir–cho'nqir relyefli joylarda, yassi tekislik daralarida va chuqurliklarda yashaydi. To'qayli o'rmon chekkalariga, jarliklar va tekisliklarga kiradi.

Poda bo'lib ko'proq o'troq yoki yarimo'troq yashaydi. Faqat arealning shimoliy qismlarida nomuntazam mavsumiy ko'chib yuradi. O'tsimon o'simliklar bilan oziqlanadi.

Noyabr-dekabrda juftlashadi va aprel-may oylarida 1, 2 ba'zan 3 tagacha bolalaydi. Bolalari avgust-sentyabr oylarigacha onasidan ajramaydi. Urg'ochilai 7-8 oyda, erkaklari 18-19 oyda jinsiy voyaga yetadi, ammo ko'payishda ilk bor 2-3 yoshida ishtirok etadi.

Yerlarning xo'jalik maqsadida o'zlashtirilishi, brakonyerlik, muz qatqalog'i va ko'p qor yog'ishi cheklovchi omillar hisoblanadi. Ovlash ta'qiqlangan. Tutqunlikda va yarim tutqun sharoitlarda ko'paytirish maqsadida Buxoro ixtisoslashgan "Jayron" pitomnigi tashkil qilingan.

Jayronlarning suv manbalariga borishiga sharoit yaratish. Qizilqum va Ustyurt yassi tekisligida qo'shimcha maxsus muhofaza etiladigan hududlar tashkil etish muhofaza choralaridan hisoblanadi.

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi fondida Kuvushshoxli hayvonlarning bir

nechta turlari joy olgan, hamda ekspozitsiya zallarida joylashib, tashrif buyuruvchilarda qiziqish uyg'otadigan eksponatlarga aylanib ulgurgan. Bularga misol qilib O'zbekiston hududida uchraydigan yelik, morxo'r (burama shoxli echki), xongul (Buxoro bug'usi) kabi mamlakat hududida uchraydigan hayvonlarning tulumlarini keltirish mumkin.



Yelik – kiyiklar oilasiga kiruvchi turlar orasida eng kichik vakili, lekin tezligi jihatidan boshqalaridan qolishmaydi.

Yelikning ushbu o'ziga xos jihatlari tashrif buyuruvchilarda katta taassurot uyg'otish bilan birga eng esda qolarli eksponatlarning biriga aylanishiga sabab bo'ladi. Tabiat muzeyining ekspozitsiyasidan joy olgan. Yana bir eksponatlardan biri – Morxo'r tulum bo'lib, u respublika Qizil Kitobiga kiritilganligi sababli noyob eksponatlar qatoridan joy olgan.

Muzey ekspozitsiyasidagi Morxo'r tulum shoxlarining burama shaklida bo'lishi hamda yirik o'lchamlarga ega bo'lganligi tufayli muzey mehmonlarida





hayrat uyg'otadi. Ushbu Tulum taksodermist S.R.Xudayberdiyev tomonidan ishlangan bo'lib, muzey fondiga 1971-yilda qo'shilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби, II жилд: Ҳайвонлар; Ж.А.Азимовнинг умумий таҳрири остида. Т.: “Chinor ENK” экологик-ноширлик компанияси. – 374 б. – ТИТ. в. Ўзбек, рус ва инглиз тилларида.
2. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси / Таҳрир хайъати А.Кдюмов ва бошк. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. - Т.: “Sharq”, 2014. - 744 б.
3. Наумов С.П., Умуртқали ҳайвонлар энциклопедияси / Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти – 1995 й., 383 б.
4. Зоҳидов Т.З. Зоология энциклопедияси. Сут эмизувчилар. Тошкент, Ўзфанакаднaшр. 1960, - 223 бет.
5. [www.ziyonetuz.uz](http://www.ziyonetuz.uz)